

---

## ENG NAMUNALI OILALAR SARALANDI

Farg'ona shahridagi "Do'stlik uyi"da O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan "Fidoymiz bo'lgaymiz seni, O'zbekiston!" shiori ostidagi "Eng namunali oila" respublika ko'rik-tanlovining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

Xalqimizga xos eng ulug' qadriyat – oilani ulug'lash, uning jamiyat hayotidagi, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini e'tirof etish, mamlakatimizda oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy natijalarini targ'ib qilish, oilalarni mustahkamlashda keng jamoatchilikning o'rini hayotiy misollar orqali ko'rsatib berish, shuningdek, ibratli oilalarni rag'batlantirish maqsadida tashkil etilgan mazkur tanlovning mahalla va shahar-tuman bosqichlarida 700 dan ziyod oilalar qamrab olindi.

Tanlovning viloyat bosqichida 19 nafar oilalar ishtirok etishdi.

Qatnashchilar chiqishlari oila qurish jarayoni, qaynona-kelin munosabatlari, farzandlarni go'zal axloq, ilmu ma'rifat, jismoniy va ma'naviy uyg'unlikda kamolga etkazish, nabiralarni tarbiyasidagi hayotiy tajriba, oiladagi an'ana va qadriyatlar, oila a'zolarining kitobsevarligi, zamon bilan hamnafasligi, kiyinish, muomala madaniyati, dunyoqarashining kengligi kabi qator mezonlarga ko'ra adolatli baholab borildi.

- Oilalardagi ilm-u ma'rifatga oshnolik, mehnatsevarlik va ishbilarmonlik, ayniqsa, ota-ona va farzandlar, qaynona-kelin munosabatlarida o'zaro hurmat muhitining barqarorligi yuksak e'tirofga loyiqdir, -deydi hakamlar hay'ati a'zosi, "Oydin" gazetasi bosh muharriri Xadichaxon Karimova. – Mazkur tanlov ana shunday ibratli, nafaqat o'z oilasi, mahallasi, qolaversa, jamiyat rivojiga sezilarli ulush qo'shib kelayotgan namunali oilalarni kashf etdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra 1-o'ringa Oltiariq tumanidagi Tojiboevlar, 2- o'ringa Marg'ilon shahridagi Tillaevlar, 3-o'ringa Bog'dod tumanidagi Tillaevlar oilasi munosib deb topildi. Shuningdek, "Kitobsevar oila", "Sportchi oila", "Ishbilarmon oila" "Mehribon qaynona", "Ahil oila", "Saxovatli oila", "Ibratli kelin", "Fayzli oila" nominatsiyalari bo'yicha sovrindorlar aniqlanib, ularga viloyat hokimligining diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

G'olib oilalar tanlovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligi arafasida o'tkaziladigan respublika bosqichida ishtirok etishadi.

2017-09-12 11:27:23